O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar va chora-tadbirlar to‘g‘risida

U M U M I Y H I S O B O T

I. Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturlarining bajarilishi to‘g‘risida umumiy axborot.

Vazirlikning jami 18 070 ta, jumladan, 59 ta markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, 14 ta hududiy boshqarmalari, 208 ta tuman (shahar) bo‘limlari, 662 ta tizim tashkilotlari va muassasalari, shuningdek, 6 981 ta maktabgacha ta’lim tashkilotlari va 10 146 ta umumta’lim muassasalarida 62 ta Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari hamda vazifa yuklatilgan 208 nafar mas’ul xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qator tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy mexanizmlar joriy etilib, aloqa kanallarining ish faoliyati yo‘lga qo‘yildi, vakant lavozimlar bo‘yicha rasmiy veb-saytga e’lon berilib, ishga qabul qilish jarayonlari ochiq tanlov asosida tashkil etildi.

Shuningdek, ishga qabul qilish uchun hujjat topshirgan nomzodlarni tekshirish va ijobiy yoki salbiy xulosa tuzish amaliyoti joriy etildi, mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi asosiy shartlar kiritildi va xodimlar ichki lokal hujjatlar bilan yozma tartibda imzo qo‘ygan holda tanishtirildi.

Manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha xodimlarning deklaratsiya to‘ldirish amaliyoti yo‘lga qo‘yilib, kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalarga korrupsiyaga qarshi asosiy shartlar kiritildi, kontragentlarni tekshirish ijobiy yoki salbiy xulosa tuzish va reyestrini yuritish, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi, shuningdek, davlat dasturlarining ijrosi haqida umumiy hisobot yuritish, korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish hamda monitoring va nazorat tadbirlari natijasiga ko‘ra korrupsiyaviy harakat deb hisoblangan holatlar yuzasidan xizmat tekshiruvi o‘tkazish, reyestrini yuritish yo‘lga qo‘yildi.

Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida **“Korrupsiyasiz soha” loyihasini** amalga oshirish bo‘yicha 2024-2025-yillarga mo‘ljallangan **“Yo‘l xaritasi”** ijrosi yuzasidan ma’lumotlar 2025-yil 6-yanvarda 05-13-52-sonli xat bilan Agentlikka yuborildi.

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish hamda ularning ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini yaxshilashga qaratilgan **qo‘shimcha chora-tadbirlar rejasi**”dagi tadbirlarning ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida esa 2025-yil 8-yanvarda 05-13-126-sonli xat bilan Agentlikka ma’lumot yuborildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ishtirokida 2025-yil 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Milliy kengashning kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan yig‘ilishida berilgan 14-sonli topshiriqlariga asosan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining “Maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi umumta’lim maktablarida “Korrupsiya-kelajakka tahdid” g‘oyasi asosida o‘quvchilarga halollik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik kabi ezgu g‘oyalarni yetkazish bo‘yicha nazorat rejasi”da belgilangan tadbirlar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma’lumot 2025-yil 26-iyunda 05-13-4231-son xat bilan Agentlikka yuborildi.

Joriy yilning aprelida tasdiqlangan “Andijon viloyatida korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish, shu jumladan, maishiy korrupsiyaga barham berish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini shakllantirish bo‘yicha” yo‘l xaritasi ijrosi yuzasidan “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish, shu jumladan, maishiy korrupsiyaga barham berish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini shakllantirish bo‘yicha” 2025-yil 13-maydagi 05-84-sonli yo‘l xaritasi ishlab chiqilgan.

Yo‘l xarita ijrosi yuzasidan 2025-yil 30-iyunda 04-13-2971-son xat bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Bosh prokuraturaga ma’lumot berildi.

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida korrupsiyaviy omillarni aniqlash va bartaraf qilish hamda “Korrupsiyadan holi” muhitni yaratish borasida aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 11-apreldagi 02-71-sonli qo‘shma Yo‘l xaritasi ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.

Ushbu yo‘l xarita ijrosi yuzasidan 2025-yil 14- noyabrdagi 03-13-3079-son xat orqali Bosh prokuraturaga umumlashgan ma’lumot taqdim etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta’minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-147–sonli Qarorining Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida amalga oshirilishi yuzasidan nazorat va hisobdorlikni tashkil etish bo‘yicha 2025-yil 19-maydagi 05-88-sonli nazorat rejasi ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.

Nazorat reja ijrosi yuzasidan 2025-yil 3-iyunda 05-12-3576-son xat bilan Agentlikka ma’lumot berildi.

Andijon viloyati Asaka tumani hamda Farg‘ona viloyati Quva tumani va Marg‘ilon shahrini zamonaviy yechimlar orqali korrupsiya va jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish, aholi orasida ularga qarshi murosasiz muhitni yaratish chora-tadbirlari bo‘yicha kompleks dasturlar ijrosi yuzasidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining joriy yil 30-iyundagi 04-111-son va 9-iyuldagi 04-118-, 04-119-son chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.

Yuqoridagi kompleks dasturlar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma’lumotlar 2025-yil 15- avgustdagi 05-13-5664-son xat bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, Vazirlar Mahkamasi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuborildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2025-yil 25-iyundagi 02-PA 1/1-1988/16-sonli topshirig‘iga asosan, Buxoro va Jizzax viloyatlarida korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish, shu jumladan maishiy korrupsiyaga barham berish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini shakllantirish bo‘yicha Yo‘l xaritalari ijrosi yuzasidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining joriy yil 2-iyuldagi 04-112-son va 04-113-sonli chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.

Buxoro va Jizzax tajribalari bo‘yicha Yo‘l xaritalarining tegishli bandlari ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma’lumotlar 2025-yil 3-oktabrdagi 04-13-4233-son, 27-oktabrdagi 02-13-3766-son xatlar orqali O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, Vazirlar Mahkamasi va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuborildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2025-yil 17-oktabrdagi 02-PA-16447-XDFU-sonli, 21-oktabrdagi 28-1755-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 21-oktabrdagi 27/1-3556-sonli topshiriqlari ijrosini ta’minlash yuzasidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida korrupsiyaviy holatlarni bartaraf etish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlanib, ijroga qaratilgan.

Yo‘l xarita ijrosi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan yig‘ma ma’lumot 2025-yil 18-dekabrdagi 1654-XDFU-son, 2025-yil 29-dekabrdagi 03-13-3804-son xatlar orqali Agentlikka yuborildi.

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasi yig‘ilishi 2025-yil 18-iyuldagi 59-2-son *(1562-sonli, 18.07.2025-y.)* bayonining 4.2-, 4.3-, 4.4- va 4.7-bandlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2025-yil 6-avgustdagi 03/1-2678-sonli *(1677-sonli 07.08.2025-y.)* topshirig‘i 1-ilovasi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida 2025-yil davomida manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlarni barvaqt aniqlash hamda ularni bartaraf etish, barcha xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish maqsadida qonunchilikda belgilangan cheklovlarga qat’iy rioya etilishi yuzasidan tushuntirish va targ‘ibot ishlari amalga oshirildi.

2025-yil davomida tizimda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar 2025-yil 9-dekabrdagi 03-13-3495-son xat orqali O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuborildi.

II. Siyosat va tartib-taomillar.

Vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo‘limlari hamda tizim tashkilotlari va muassasalari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid 18 ta ichki lokal hujjatlar va ularga

kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar 18 040 ta tizim tashkilotlariga elektron shaklda yetkazildi va ushbu hujjatlar matnlaridagi normalarning mohiyati va ahamiyati barcha darajadagi, xususan 1 mln. nafardan ortiq xodimlarga tushuntirilib, profilaktika tadbirlari o‘tkazildi, shuningdek, ular mazkur ichki lokal hujjatlar bilan imzo chekkan holda tanishtirilib, kafolat xat (majburiyatnoma)lari rasmiylashtirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi qabul qilinib, vazirning 2024-yil 31-iyuldagi 236-sonli buyrug‘i bilan ijroga qaratildi. Shuningdek, ushbu ichki lokal hujjatlar hamda ularga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar vazirlikning rasmiy veb-saytidagi “Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘limi”ga (https://gov.uz/oz/uzedu/sections/view/111445 havolada tanishish mumkin) ham joylashtirildi, shuningdek, xodimning ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyasi, aloqador shaxslarning ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya, manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reyestri va mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomaning yangi tahrirdagi shakllari tasdiqlandi.

Bundan tashqari, korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini o‘z ichiga olgan chora-tadbirlar dasturi, reja, “Yo‘l xarita”, Nazorat reja, monitoring va nazorat reja hamda 16 ta ichki hujjatlarning ijrosi bo‘yicha barcha hududiy boshqarmalarning ichki nazorat tuzilmalari faoliyati o‘rganildi.

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2025-yil 15-dekabrdagi 03-07/8269-sonli taqdimnomasiga ko‘ra, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan 11 nafar xodimlar tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari va ularning harakatlarida O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 193^4-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik alomatlari mavjudligi aniqlangan.

Taqdimnomaga ko‘ra, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan 11 nafar xodimlar tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari va ularning harakatlarida O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 1934-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlik alomatlari mavjudligi aniqlangan.

Taqdimnomada qayd etilgan holatlar yuzasidan qonunchilik talablariga muvofiq tegishli choralar ko‘rildi. Jumladan, ayrim xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalari belgilangan tartibda bekor qilindi, faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlardan tushuntirish xatlari olinib, rasman ogohlantirildi.

Shuningdek, ularga tegishli bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari va fermer xo‘jaliklari bo‘yicha ta’sischilikdan chiqish, rahbarlik faoliyatidan voz kechish yoki tadbirkorlik faoliyatini tugatish bo‘yicha amaliy choralar ko‘rildi. Tadbirkorlik subyektlarining faoliyati tugatilgan yoki tugatish jarayoniga o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etildi.

Qonunbuzilish holatlari to‘liq bartaraf etilmagan taqdirda hujjatlar belgilangan tartibda vakolatli organlarga yuborilishi mumkinligi haqida xodimlarga O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunining 8-moddasi talablari tushuntirildi va rasman ogohlantirish xatlari topshirildi.

Taqdimnomada qayd etilgan holatlar hududiy maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlarida o‘tkazilgan yig‘ilishlarda tanqidiy muhokama qilinib, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ygan xodimlar faoliyati bo‘yicha tegishli xulosalar chiqarildi.

Kelgusida bunday holatlarning oldini olish maqsadida tizim xodimlari o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunida belgilangan cheklovlarga qat’iy rioya etilishini ta’minlash, shuningdek, tushuntirish va targ‘ibot ishlarini yanada kuchaytirish bo‘yicha tegishli vazifalar belgilab olindi.

III. Xavf-xatarlarni baholash.

Jinoyatchilikni kamaytirish, korrupsion holatlarni oldini olish maqsadida joriy yilda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining “e-anticor.uz”platformasi orqali korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash uchun vazirlikning 102 ta banddan iborat funksiyasi qayta baholanib, 24 ta banddan iborat korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi, 11 ta banddan iborat korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur, korrupsiyaga moyil bo‘lgan 152 ta lavozimlar ro‘yxati elektron reyestri shakllantirildi. Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi xavf darajasi 11 ta funksiyada “o‘rta” hamda 13 tasida “past” darajada baholandi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasining “korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralari” ustunidagi tadbirlarning ijrosini belgilangan muddatlarda ta’minlash hamda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish, aniqlash va bartaraf etishning samarali mexanizmlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan**har chorakda** vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasiga axborot kiritib borish to‘g‘risida vazirlik tizimidagi barcha tashkilotlarga 2025-yil 13- maydagi 05-13-2859-son ko‘rsatma xat yuborildi.

Ta’limda boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etish, korrupsiya xavf-xatarlarini oldini olish va byurokratiyani kamaytirishdagi ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish maqsadida “bir darcha” tamoyili asosida tizim raqamlashtirilmoqda.

Ma’lumot uchun: bolalarni 1-sinfga qabul qilish, shahodatnoma dublikatini berish, o‘quvchilarni bir maktabdan boshqa maktabga ko‘chirish, chet el fuqarolarining farzandlari maktabga qabul qilish, eksternat tartibida imtihonlar olish uchun arizalar qabul qilish, xorijda ta’lim olgan umumiy o‘rta ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni nostrifikatsiya qilish, nodavlat ta’lim tashkilotlariga litsenziya berish, shahodatnoma ma’lumotini olish, apostil qo‘yish, pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish to‘liq raqamlashtirildi.

Tizimda davlat xizmatlarini ko‘rsatish sifati tobora yaxshilanib, ortiqcha tartib-taomillar qisqartirildi hamda elektron shaklda ko‘rsatiladigan 10 tadan ortiq davlat xizmati joriy etildi. Shuningdek, ularning xizmat ko‘rsatish muddatlari 2 barobarga qisqartirildi.

8 turdagi hujjat va ma’lumotni aholidan talab qilinishi to‘liq bekor qilindi.

O‘tgan bir yil davomida “qo‘l” boshqaruvidan “avtomatik” boshqaruv tizimiga o‘tish jarayoni jadallik bilan olib borilmoqda.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar.

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish:

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni 10-moddasi ijrosini ta’minlash va ichki lokal hujjatlarni “Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma, ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyalar va manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reyestrining namunaviy shakllari”ga (2024-yil 5-noyabr, ro‘yxat raqami 3569) muvofiqlashtirish maqsadida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 24-dekabrdagi 409-son buyrug‘i qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonunni amalga oshirish bo‘yicha 2025-yilda qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Vazirlikning 2025-yil 30-apreldagi 143-sonli hamda 28-oktabrdagi 412-sonli buyruqlariga muvofiq, joriy yilning may va noyabr oylarida yurtimiz bo‘ylab **“Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi”** doirasida profilaktik tadbirlar, seminarlar va targ‘ibot ishlari amalga oshirildi.

Tizimda faoliyat yuritayotgan rahbar va pedagog xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish maqsadida manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini oldini olishga oid ichki lokal hujjatlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan tarqatma materiallari xodimlarga yetkazilib, manfaatlar to‘qnashuvi holatlari haqida xabar berishga mo‘ljallangan vazirlik va tizim tashkilotlari aloqa kanallarini keng targ‘ib qilindi. Manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini oldini olishga oid qonunchilik hujjatlari asosida tayyorlangan targ‘ibot materiallari va taqdimotlarni tarqatildi.

Jumladan, vazirlikning 2025-yil 12-noyabrdagi 03-13-3062 -son xati orqali O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tayyorlangan targ‘ibot materiallari (2 ta banner, 1 ta buklet hamda 19 ta flayer) seminar va boshqa profilaktik tadbirlarda foydalanish uchun yuborildi.

Bundan tashqari, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallarini o‘zida aks ettirgan videorolik hamda posterlar ham tarqatilgan.

Korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari va ishonch telefonlari yuzasidan namunadagi flayerlar barcha ta’lim tashkilotlarining kirish joylariga osib qo‘yildi. Shuningdek, “Pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish-o‘ta og‘ir jinoyat!, Jinoyat uchun jazo muqarrar” (tashrif qilgan fuqarolar diqqatiga) hamda “Halol turmush kechirish oila va farzandlar bilan tinch va halovatda yashash kafolatidir”, “Unutma, seni oilang kutmoqda” (ta’lim tashkiloti rahbari yoki xodimi diqqatiga) yozuvli eslatmalar barcha ta’lim tashkilotlari xodimlar stoliga qo‘yilishi ta’minlandi.

Vazirlik markaziy apparatining 206 nafar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, tuman (shahar)lar bo‘limlarining 10 065 nafar, tizim tashkilotlari va muassasalarining 391 nafar xodimlarining manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalari oshirilib, bilimlari test.adliya.uz saytida baholandi.

Tizimda faoliyat yuritayotgan 24 624 nafar maktab direktorlari va ularning o‘rinbosarlari hamda 199 666 nafar pedagog xodimlar “Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish” mavzusida, shuningdek, oktabr oyida 1 605 nafar xodim Huquqni Muhofaza qilish akademiyasida "Manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda oldini olish" mavzusida masofaviy o‘quv kursida o‘qitildi va yana 41 384 nafar xodimni o‘qitish bo‘yicha tegishli ma’lumotlar Akademiyaga kiritildi.

Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyaning namunaviy shakli Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy veb-saytiga joylashtirildi (havola https://uzedu.itsm.uz/uploads/downloads/RtH1u-4F6EuD9AMqOU7ADl1z4w8NHjyV.pdf).

Vazirlik tizimida manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar berishning elektron tizimi yo‘lga qo‘yilganligi o‘rganilib, ro‘yxati shakllantirildi va ijtimoiy tarmoqlarda e’lon berilib, 17 mingta tashkilot binolariga plakat shaklidagi e’lon ham osildi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 28-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 62-sonli buyrug‘i bilan odob-axloq qoidalari, odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi nizom va komissiyaning 13 nafar a’zolari tarkibi tasdiqlangan.

Odob-axloq komissiyasi davlat xizmatchilarining odob-axloq qoidalariga rioya qilish masalalarini ko‘rib chiqishi, xizmat tekshiruv o‘tkazishi, axloq normalariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarning oldini olishi, murojaatlarni ko‘rib chiqishi, sha’n va qadr-qimmatni himoya qilishi, odob-axloq qoidalarini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishi kabi vazifalarni bajarishi kerak bo‘lib, joriy yil 21-fevralda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining markaziy apparati va hududiy bo‘limlarining odob-axloq qoidalariga rioya etish bilan bog‘liq nizolar ko‘rib chiqilib, Odob-axloq komissiyalarining 2024-yildagi faoliyati taqdim etilgan ma’lumotlar asosida tahlil qilingan.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi davlat xizmatida yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, jamoatchilik ongida davlat xizmatiga bo‘lgan hurmat va ishonchni oshirish, davlat xizmatchilarining axloq qoidalariga zid bo‘lgan xatti-harakatlarining oldini olish yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borilib, 1-sonli bayon rasmiylashtirilgan.

O‘rganish natijasi bo‘yicha Odob-axloq komissiyasi a’zolariga vazifa va funksiyalarini amalga oshirishining mexanizmlari tushuntirilib, uslubiy yordam ko‘rsatildi.

Bundan tashqari, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo‘yicha xolis baholash va tartibga solish hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g‘olibni (g‘oliblarni) tanlash bo‘yicha shakllantirilgan Xarid komissiyasi to‘liq tarkibda ish faoliyatini olib bormoqda, Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi va uning hududiy bo‘linmalari mas’ul xodimlari davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvini tahlil qilishda va tashkilot bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchliligini tekshirish jarayonida ishtirok etib, manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) 5 ta holatda risk tasdig‘ini topib, o‘z vaqtida bartaraf etildi.

Vazirlikning idoraviy dasturida belgilangan tadbirlar bo‘yicha ham muayyan ishlar amalga oshirildi. Xususan, ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlar doirasida "Korrupsiyasiz soha" loyihasi bo‘yicha qator dasturlar qabul qilindi. Shu bilan birga, maktabgacha va maktab ta’limiga oid 79 ta normativ-huquqiy hujjat korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazildi.

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimi faoliyatiga oid 300 ga yaqin qonunchilik hujjatlari xatlovdan o‘tkazilib, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish bo‘yicha cheklovlar mavjud 10 ta qonunchilik hujjatlarining ro‘yxati shakllantirildi.

Vazirlikning tegishli axborot tizimlari, platformalari va boshqa dasturiy ta’minotlari o‘rganilib, xodimlar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha deklaratsiyalarni va xabarnomalarni yuborish imkoniyati rasmiy veb-saytning (https://uzedu.uz/uz) “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi”dagi “Xodimlar xatti-harakatiga oid korrupsiyani oldini olish bo‘yicha murojaat bo‘limi”, shuningdek mazkur saytning (https://uzedu.uz/uz/static/request) “Vazirga murojaat” hamda vazirlik serverlarida (https://mail.uzedu.uz/webmail/login/#mail) himoyalangan pochta tizimi mavjud bo‘lib, bu yo‘nalishdagi ishlar yanada jonlantirildi.

Shaxsga doir ma’lumotlar bilan ishlaydigan vazirlikning 8 ta tuzilmasi, xususan Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi, Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi, Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi, Davlat xaridlarini tashkil etish bo‘limi, Moliya-iqtisod departamenti, Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, Axborot kommunikatsiyalari texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi hamda Ichki audit departamenti, shuningdek ularning hududiy hamda tizim tashkilotlari va muassasalaridagi bo‘linmalari mas’ul xodimlari tomonidan shaxsga doir ma’lumotlarni oshkor etmaslik va oshkor etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi haqida rasman ogohlantirilib, majburiyatnomalar rasmiylashtirildi.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni tashkilot shartnomalariga kiritish:

Vazirlik markaziy apparatida kontragentlar bilan tuzilgan 40 ta, hududiy boshqarmalardagi 1 050 ta va tizim tashkilotlaridagi 1980 ta shartnomalarga korrupsiyaga qarshi asosiy shartlar kiritildi.

Kontragentlarni tekshirish:

Hisobot davrida vazirlik markaziy apparatida 40 ta, hududiy boshqarmalarda 169 ta va tizim tashkilotlarida 752 ta kontragentlar tekshirilib, 905 ta ijobiy va 56 ta salbiy xulosa berildi, bu koʻrsatkich 6 foizni tashkil etgan.

Ishga nomzodlarni tekshirish:

Vazirlik boʻyicha 2025-yil davomida 1 152 nafar ishga qabul qilinadigan nomzodlar tekshirilib, 887 ta ijobiy hamda 265 ta salbiy xulosa berilgan.

Ta’lim va kommunikatsiya.

Tizimda faoliyat yuritayotgan 1 157 nafar maktab direktorlari va 1 160 nafar pedagog xodimlar “Korrupsiyaga qarshi kurashishning zamonaviy yondashuvlari” mavzusida hamda 2025-yil yanvar-mart oylarida 2026 nafar xodim Iqtisodiyot va moliya vazirligining 12 soatlik “Davlat xaridlari va boshqa byudjet moliyaviy xarajatlarini amalga oshirishda manfaatlar toʻqnashuvi holatlarining oldini olish” nomli oʻquv kursida, 24 nafar xodimlar Huquqni muhofaza qilish akademiyasida “Korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha samarali idoraviy chora-tadbirlar tashkil etilishini ta’minlash” mavzusida 18 soatlik masofaviy maxsus oʻquv kurslarida, 18 nafar xodim Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish Akademiyasining 10 soatlik “Davlat xaridlarida firibgarlik va korrupsiyaning oldini olish” mavzularida malakalari oshirilib sertifikatlar olindi.

Maktabgacha va maktab ta’limi tizimining 20 nafar xodimlari Avstriyaning Vena shahrida joylashgan Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash akademiyasi (IACA)da "Davlat xaridlarida firibgarlik va korrupsiyaning oldini olish" mavzusida masofaviy malaka oshirish kurslarini muvaffaqiyatli yakunlab, sertifikatlarga ega boʻlishdi.

Tizimda faoliyat yurituvchi Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boʻlinmalarining 25 nafar xodimlari Huquqni muhofaza qilish Virtual akademiya platformasida chuqurlashtirilgan tarzda oʻquv kurslarini muvaffaqiyatli yakunladi.

Shuningdek, ushbu platforma orqali vazirlik markaziy apparatidan 283 nafar, hududiy boshqarmalardan 526 nafar, tizim tashkilotlaridan 272 nafar, jami 1081 nafar rahbar va xodimlar maxsus oʻquv kurslarida malaka oshirib, sertifikatlarga ega boʻlishdi.

Shu qatorda, Huquqni muhofaza qilish Virtual akademiyasi elektron platformasiga 10 mingdan ziyod umumiy oʻrta ta’lim maktablari oʻquvchilari hamda 7 mingga yaqin davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari qamrab olingan.

“Profilaktika kunlari” va “Sinf soat”lari doirasida 1 624 678 ta targʻibot tadbirlarini oʻtkazish natijasida 3 368 880 nafar oʻquvchilar qamrab olindi. Shundan, 816 307 tasi halollik qadriyatlari (816 209 nafar oʻquvchi), 15 740 tasi toʻgʻrilik, mehnatsevarlik xotirjam hayot asosi (1 759 760 nafar oʻquvchi), 792 631 tasi korrupsiya – davlatni yemiruvchi, insonni tubanlashtiruvchi illat (792 911 nafar oʻquvchi) tadbirlari.

“Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunning 31-moddasiga va “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining 19, 26-27-moddalariga hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 16-oktabrdagi 334-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi to‘g‘risida”gi nizomning 11-bandiga muvofiq jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalariga qat’iy rioya qilishi, har turli aybli g‘ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) sodir etmasligi, xususan, korrupsiyaga oid ma’muriy huquqbuzarliklarga hamda korrupsiyaga oid jinoyatlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi to‘g‘risida 900 ming nafar xodimga yakka tartibda profilaktika tadbiri o‘tkazilib, bu norma va qoidalarga rioya qilmaslik tegishliligi bo‘yicha axloqiy ta’sir choralari, intizomiy javobgarlik va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks moddalarida, xususan, korrupsiyaga oid ma’muriy huquqbuzarliklar, ya’ni 61^1, 193^1 va 193^2-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar hamda Jinoyat kodeksi moddalarida, xususan, korrupsiyaga oid jinoyatlar, ya’ni 167-moddaning ikkinchi qismi “g” bandi, 168-moddaning uchinchi qismi “v” bandi, 192^9 va 192^{10}, 205, 209 — 214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatlar bo‘yicha javobgarlik haqida ular rasman ogohlantirildi.

Surxondaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar haqida “O‘zbekiston 24” radiokanalida axborot berildi (https://t.me/surxonvmmtb/42099).

“Sirdaryo yoshlari” radiosining “Hamroh” loyihasida “Ta’lim tizimi xodimlari o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish” mavzusida suhbat tashkil etildi (https://t.me/sirdaryoyoshlariradiosi/2986).

O‘tkazilgan tadbirlar bo‘yicha gazeta va jurnallarda “Ta’lim -korrupsiyadan xoli soha” mavzusida maqolalar chop etildi. Mahalliy ommaviy axborot vositalari xodimlari tomonidan rahbarlarning korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusiga oid alohida intervyular olindi.

Vazirlik tizimida korrupsiya holatlari to‘g‘risida axborot to‘plash, bunday vaziyatlarni aniqlash, aholi hamda barcha darajadagi xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlar yuzasidan fikr-mulohazalarini o‘rganish maqsadida “Anonim so‘rovnoma” (savolnoma) ishlab chiqildi. So‘rovnomaning barcha natijalari anonim hisoblanadi va korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha yanada samarali chora-tadbirlar belgilash uchun asos bo‘ladi. Vazirlikning 2025-yil 11-noyabrdagi 03-13-3040-son xati orqali hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlari rahbarlariga korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sodir etilishi va bunday muhitni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash uchun xodimlar va aholi o‘rtasida ijtimoiy tarmoqlar orqali anonim so‘rovnomalar o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

Shuningdek, Vazirlik tizimida korrupsiya holatlari to‘g‘risida axborot to‘plash, bunday vaziyatlarni aniqlash, aholi hamda barcha darajadagi xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlar yuzasidan fikr-

mulohazalarini o‘rganish maqsadida “Anonim so‘rovnoma” (savolnoma) ishlab chiqildi. “Maktabgacha va maktab ta’limi tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan barcha darajadagi xodimlar, aholi hamda ota-onalar o‘rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlarga munosabatini o‘rganish yuzasidan” so‘rovnoma o‘tkazildi va ushbu so‘rovnomada **108 mingdan** ortiq ishtirokchi qatnashdi.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi”da o‘tgan vaqt davomida korrupsion jinoyatlarni sodir etgan ta’lim muassasalari misolida tahliliy axborotlar tinglanib, ilm dargohlarida korrupsiya va jinoyatchilikni oldini olish, davlat mulkini asrab-avaylash, sohada byudjet mablag‘laridan to‘g‘ri foydalanish, davlat xaridlari, ishga qabul qilish va boshqa yo‘nalishlarda korrupsiya holatlariga yo‘l qo‘ymaslik, mansab vakolatini suiiste’mol qilmaslik bo‘yicha shaxsiy mas’uliyat va javobgarlikni kuchaytirish lozimligi ta’kidlandi. Qonun va me’yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etmagan mas’ullarga nisbatan keskin ravishda javobgarlik masalasi belgilanganligi to‘g‘risida ogohlantirildi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida korrupsion holatlarga yo‘l qo‘ymaslik lozimligi, aks holda salbiy oqibatlarga olib kelishi yoritib borilmoqda.

VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar.

Korrupsiya holatlari haqida xabar berish uchun barcha turdagi aloqa kanallarining (“Ishonch telefoni”, elektron pochta manzillari, rasmiy veb-sayt, telegram bot va ijtimoiy tarmoqlardagi boshqa sahifalar) uzluksiz faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, nazoratga olingan.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida hamda bo‘ysunuvida bo‘lgan tashkilotlarda 2025-yil davomida jismoniy va yuridik shaxslardan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha kelib tushgan murojaatlar tahlil qilindi.

Jumladan, 2025-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga 60 345 ta *(Markaziy apparatda 46 012ta, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 1569 ta, Andijonda 1137 ta, Buxoroda 719 ta,, Jizzaxda 224 ta, Qashqadaryoda 1262 ta, Navoiyda 570 ta, Namanganda 1401 ta, Samarqandda 2452 ta, Sirdaryoda 1252 ta, Surxondaryoda 861 ta, Toshkent viloyatida 321 ta, Farg‘onada 630 ta, Xorazmda 675 ta, Toshkent shahrida 1242 ta, tizim tashkilotlarida 18 ta)* murojaatlar kelib tushgan.

Ushbu murojaatlar mazmunan tahlil qilinganida, yaqin qarindoshlarning bitta davlat tashkilotida ulardan birining ikkinchisiga bevosita bo‘ysunishi va nazorati ostida faoliyat olib borishi yuzasidan 57 ta murojaat kelib tushgan.

Murojaatlarda ko‘tarilayotgan masalalarni hal etish bo‘yicha barcha darajadagi rahbarlarning hisobotini har oyda eshitib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yilib, tashkilot rahbarlariga aniq topshiriq va ko‘rsatmalar berildi, “Yo‘l xarita” va chora-tadbirlar dasturi ijroga qaratilib, murojaatlarni o‘z vaqtida hal etish, ularni ko‘rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatchilik va loqayd munosabatda bo‘lish holatlariga yo‘l

qo‘ymaslik hamda buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralarini ko‘rish fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlari sifatida qaralishi haqida barcha darajadagi rahbarlar bilan kafolat xatlari (majburiyatnoma) rasmiylashtirildi.

VII. Monitoring va nazorat.

Maktabgacha va maktab ta’limi sohasiga oid qonunlar hamda faoliyatni tartibga soluvchi boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek, ko‘rsatma va topshiriqlarning ijrosi qanday bajarilayotganligi rejali asosda vazirlik ishchi guruhi tomonidan hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, hududiy bo‘linmalari hamda idoraviy mansub tashkilotlari va muassasalari, shuningdek, A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy institutida o‘rganilib, amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan birga, qator qonun buzilishi, xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yilganligi aniqlandi.

Xususan, boshqarmalardagi tarkibiy bo‘linmalarning nizomlari mavjud emas, vazifalar taqsimoti yuklatilgan vazifa va funksiyalarni to‘liq qamrab olmagan, lavozim yo‘riqnomalari ma’muriy islohotlar natijasida funksional majburiyatlarning qayta taqsimlanishini hisobga olgan holda ishlab chiqilmagan.

Jamoa shartnomasi va ichki tartib qoidalari amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtirilmagan. Doimiy faoliyat yurituvchi komissiyalar va umumta’lim muassasalaridagi ishchi guruhlar lozim darajada ishlamagan.

Ayrim xodimlarning mutaxassisligi malaka talablariga muvofiq emas. Xodimlar ochiq tanlov o‘tkazilmasdan ishga qabul qilingan. Ayrim xodimlar bilan mehnat shartnomasi tuzilmagan, “hrm.argos.uz” elektron platformasiga kiritilgan buyruqlar imzolanmagan, buyruqlar ro‘yxatga olinmagan, bir xil sana va bir xil raqamdagi buyruq bilan bir necha shaxs lavozimga tayinlangan, ayrim xodimlar 1 yil ishga kelmagan bo‘lsada, munosabat bildirilmagan. Maktabgacha ta’lim tashkiloti va umumta’lim muassasasi direktori lavozimlariga nomzodlarni noqonuniy tayinlash holatlari mavjud.

Umumta’lim muassasalarining kadrlar bo‘yicha menejerlari yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirmagan, mehnat va ijro intizomi nazorat qilinmagan, mehnat shartnomasi bekor qilingan xodimlar “my.mehnat.uz” Yagona milliy mehnat tizimidan chiqarilmagan, mehnat qonunchiligi talablariga rioya qilinmagan, erp.maktab.uz platformasida o‘quvchilar to‘liq qayd etilmagan, emaktab.uz platformasida dars mavzulari to‘liq kiritilmagan, bajarilmagan ishlar “bajarildi” qilib ko‘rsatilgan, arxiv ishlari ham lozim darajada bajarilmagan.

Ish yuritish va ijro nazoratini tashkil etish bo‘yicha ichki lokal hujjatlar mavjud emas, edo.ijro.uz hamda exat.uz tizimi faoliyatga to‘liq tatbiq etilmagan. Tarkibiy bo‘linmalardagi aksariyat hujjatlarning ijrosi nazoratga olinmagan, muddati buzib bajarilgan, ayrim murojaatlarning ijrosi ta’minlanmagan. Sayyor qabullar o‘tkazilmagan. Tarkibiy bo‘linmalarning har chorakda amalga oshirgan ishlarining hisoboti shakllantirilmagan. Ish rejalarda belgilangan tadbirlarning ijrosi ta’minlanmagan.

Davlat xizmatlarini koʻrsatish sohasi ham nazoratga olinmagan, arizalar muddati buzib koʻrib chiqilgan. Maktabgacha ta’lim qamrovi va sifatini oshirish masalalari ham oʻz holiga tashlab qoʻyilgan, takliflar ishlab chiqilmagan. Bogʻchalarda yoʻllanmasiz tarbiyalanuvchilar mavjud, axborot tizimiga notoʻgʻri ma’lumot kiritilgan, taomnoma tuzilmagan, tarbiyalanuvchilarga ovqat toʻliq berilmagan, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari xodimlar tomonidan olib ketilgan, budjet hisobidan bepul yetkazib berilgan oʻquv-metodik vositalar, qoʻllanmalar, koʻrgazmali materiallar, didaktik oʻyin va oʻyinchoqlar notoʻgʻri taqsimlangan.

Xodimlarning malaka oshirishi reja asosida toʻliq ta’minlanmagan. Ta’lim darajasi yuqori boʻlmagan maktablar bilan, shuningdek, huquqbuzarlikka moyil oʻquvchilar bilan individual ishlash tizimli tashkil etilmagan. Axborot xavfsizligi siyosati va talablariga amal qilinishi nazorat qilinmagan.

Ayrim xodimlarga Mehnat kodeksi, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya toʻgʻrisida”gi va “Davlat fuqarolik xizmati toʻgʻrisida”gi Qonunlarida belgilangan cheklovlarga rioya etmaganlik uchun chora koʻrilmagan.

Rasmiy veb-saytlar Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi 373-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Davlat organlari, xoʻjalik birlashmalari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytiga qoʻyiladigan asosiy talablar” asosida yuritilmagan va ochiq ma’lumotlar portaliga ham tegishli ma’lumot va axborotlar joylashtirilmagan, joylashtirilgan axborotlar ham faoliyatni toʻliq va xolisona yoritilishini ta’minlamagan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yoʻlga qoʻyish boʻyicha tegishli ishlar amalga oshirilmagan, jumladan, faoliyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlar aniqlanmagan, ishga qabul qilish, lavozimga tayinlash va xaridlar jarayonida manfaatlar toʻqnashuvini oldini olish va aniqlash bilan bogʻliq choralar koʻrilmagan, korrupsiya haqida xabar berish boʻyicha aloqa kanallari yoʻlga qoʻyilmagan, ushbu yoʻnalishdagi hujjatlar ijro etilmagan, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etishga yetarlicha e’tibor qaratilmagan.

Yuqorida qayd etilganlarga asosan tekshiruvlar natijalarini tanqidiy muhokama qilish, aniqlangan qonun buzilishi, xato va kamchiliklarni, ularning kelib chiqish sabablarini hamda bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni zudlik bilan bartaraf etishga qaratilgan aniq choralar koʻrish va oʻz faoliyatida sustkashlikka yoʻl qoʻygan aybdor xodimlarning javobgarlik masalasini hal etish, shuningdek, faoliyatni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqish va har chorakda ijrosini ta’minlash yuzasidan tegishli rahbarlarning hisobotlarini eshitib borishni tashkil etish boʻyicha joylarga koʻrsatma berildi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta’sir choralari.

Vazirlik markaziy apparati hamda tizim tashkilotlarida 252 ta nazorat tadbirlari oʻtkazildi, 55 ta holat boʻyicha materiallar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi.

2025-yil davomida (324 ta) hamda 2024-yilning mos davriga nisbatan (343 ta) sodir etilgan korrupsiyaga oid jinoyat ishlari soni 19 taga (6 foiz), shaxslar soni esa 20 taga (4 foizga) kamaygan.

Ma’lumot uchun: 2025-yilning hisobot davrida korrupsiyaga oid jinoyat sodir etgan shaxslar Qoraqalpog‘iston Respublikasida 18 ta, Andijonda 89 ta, Buxoroda 13 ta, Jizzaxda 20 ta, Qashqadaryoda 59 ta, Navoiyda 34 ta, Namanganda 22 ta, Samarqandda 87 ta, Sirdaryoda 21 ta, Surxondaryoda 39 ta, Toshkent viloyatida 37 ta, Farg‘onada 47 ta, Xorazmda 16 ta, Toshkent shahrida 11 tani, 2024-yilning mos davri davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasida 39 ta, Andijonda 69 ta, Buxoroda 23 ta, Jizzaxda 21 ta, Qashqadaryoda 65 ta, Navoiyda 20 ta, Namanganda 43 ta, Samarqandda 64 ta, Sirdaryoda 27 ta, Surxondaryoda 60 ta, Toshkent viloyatida 41 ta, Farg‘onada 42 ta, Xorazmda 10 ta, Toshkent shahrida 9 ta ko‘rsatkichni tashkil etgan.

Korrupsiyaviy jinoyat sodir etgan shaxslar soni 2025 va 2024-yillarning mos davrlari solishtirilganda Samarqandda 23 ta, Andijonda 20 ta, Navoiyda 14 ta, Xorazmda 6 ta, Farg‘onada 5 ta, Toshkent shahrida 2 taga oshgan.

Shuningdek, Surxondaryo viloyatida 21 ta, Namanganda 21 ta, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 21 ta, Sirdaryoda 6 ta, Toshkentda 4 ta, Jizzaxda 1 taga kamaygan.

Moddalar kesimida tahlil qilganda:

2025-yilning hisobot davrida tizim xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsion jinoyatlar moddalar kesimida tahlil qilinganda:

356 (69,4%) ta – o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish (167-modda);

49 (9,6%) ta – pora olish (210-modda);

48 (9,4%) ta – firibgarlik (168-modda);

42 (8,2%) ta– pora berish (211-modda);

9 (1,8%) ta – mansab soxtakorligi (209-modda);

7 (1,4%) ta – hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste’mol qilish (205-modda);

1 (0,2%) ta – tijoratda pora evaziga og‘dirib olish (192/9-modda);

1 (0,2%) ta– pora olish-berishda vositachilik qilish (212-modda va jinoyat kodeksining boshqa moddalari bilan javobgarlikka tortilgan. Tahliliy ma’lumotlarga ko‘ra, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan vazirlik tizimida maishiy korrupsiyaning ulushining nisbatan kamayganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

2024-yilda hamda 2025-yil davomida tizim xodimlari tomonidan sodir etilgan jinoyatchilik holatlariga viloyatlar va tuman(shahar)lar kesimidagi ma’lumotlar tahlil qilindi, respublika darajasida va hududlarda o‘tkazilgan yig‘ilishlarda muhokama qilindi, yig‘ilishlarda jinoyatchilik soni yuqori bo‘lgan tuman (shahar) bo‘limlarining faoliyatiga nisbatan tanqidiy fikrlar bildirildi.

Xulosalar.

Vazirlik tizimida korrupsiya, manfaatlar to‘qnashuvi va boshqa huquqbuzarliklarning oldi olish, faoliyatning ochiqligiga erishish va zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalar ijrosiga nisbatan xodimlar mas’uliyatini yanada oshirish, mansabdor shaxslar va boshqa xodimlar faoliyati samaradorligini yangi mezonlar asosida baholash, xodimlarning kasbiy hamda xizmatdan tashqari

faoliyatdagi odob-axloqining yuksalib borishi, faoliyatda korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning samaradorligini ta’minlashga qaratilgan natijalarga erishiladi.

O‘tgan 2023-2024-yillarda vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash natijalari 82 ball bilan baholanib, “yashil” hududdan o‘rin oldi, 2022-yilda esa bu ko‘rsatkich 52 ball “qizil” hududda bo‘lgan.

Xulosa sifatida, yuqorida vazirlik va tarkibiy bo‘linmalar kesimida korrupsiyaga qarshi choralarni amalga oshirishning asosiy natijalari ko‘rsatildi, avvalgi davrlardagi ko‘rsatkichlar bilan taqqoslama qiladigan bo‘lsak o‘sish bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2025-yil 30-dekabrdagi PF-270-son Farmoni qabul qilindi.

Ushbu farmon korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligini oshirish, bu borada tizimni mustahkamlash hamda oldini olish mexanizmlarini shakllantirish uchun yangi institutsional va boshqaruv yondashuvlarini joriy etish maqsadida qabul qilingan. Ushbu hujjat mamlakatdagi korrupsiya bilan kurashish sohasidagi islohotlarini yangi bosqichga olib chiqadi va jamoatchilik, davlat organlari hamda nazorat idoralari o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yishni nazarda tutadi.

Farmon umumiy muhokama qilingan korrupsiyaga qarshi islohotlar doirasini yangi bosqichga olib chiqadi:

- Yangicha institutsional ramka — ichki nazorat, klaster tizimi va raqamli monitoring;
- Samarali reyting va sertifikatlashtirish tizimlari orqali davlat faoliyati samaradorligini oshirish;
- Rag‘batlar va jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish;
- Ochiqlik, hisobdorlik va fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikni rivojlantirish.

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan yangi farmon- bu huquqiy va institutsional yondashuvni jadal takomillashtirish, davr talablariga muvofiq raqamli va klaster usullarini joriy etish, shuningdek, korrupsiya xavflarini oldindan aniqlash va samarali bartaraf etishga qaratilgan muhim qadamdir. Ushbu farmon bilan korrupsiyaga qarshi strategiya uzoq muddatli samaradorlik, ochiqlik va jamoatchilik bilan hamkorlikka asoslangan tizimga aylanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasi.

Maktabgacha va maktab ta’limi sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish, korrupsiyaviy omillarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilash, sohada ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini takomillashtirish,

korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi samaradorligini oshirishga qaratilgan “Korrupsiyasiz soha” loyihasi to‘liq amalga oshiriladi.

Xodimlarni eng avvalo, korrupsiyaga nisbatan huquqiy savodxonligini oshirish yo‘li bilan bu illatga nisbatan murosasiz munosabat ruhi shakllantiriladi. Shu bois, targ‘ibot va o‘quv seminar tadbirlari doimiy ravishda tashkil etiladi. Xodimlarni korrupsiya holati va manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasligi yuzasidan doimiy nazorat amalga oshiriladi. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat faoliyati uchun mas’ul xodimlarning asosiy maqsadi korrupsion holatlarni oldindan aniqlab uni oldini olish va korrupsiyaviy xavf-xatarlardan holi qilish va “Korrupsiyasiz soha” maqomini olishdan iborat.

Soha xodimlari hamda umumta’lim muassasalari pedagoglari o‘rtasida “Umumta’lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish” mavzusidagi targ‘ibot va profilaktika tadbirlarini o‘tkaziladi va ular o‘qitiladi.

Maktabgacha va maktab ta’limi muassasalari faoliyatiga asossiz aralashish, pedagog kadrlarning sha’ni va qadr-qimmati kamsitilishiga, ularning mehnatga majburlanishiga, ta’lim-tarbiya jarayoniga to‘sqinlik qilishning har qanday shakllariga, o‘qituvchi va o‘quvchilarning huquqlari buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha 104 nafar pedagoglarga nisbatan 3 ta holatda 24 mln 375 ming so‘m miqdorda mansabdor shaxslardan jarimalar undirilgan.

Shuningdek, amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda sohadagi muammolar, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ko‘plab vazifalar, xususan, davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya qilish, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni ko‘rmaganlik uchun mas’ul mansabdor shaxslarning javobgarlik masalasi ko‘rib chiqiladi, shuningdek, barcha darajadagi xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish jarayonlaridagi mas’uliyati kuchaytiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari mustaqilligini ta’minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2025-yil 21-apreldagi PQ-147-son Qaroriga muvofiq vazirlik markaziy apparati va hududiy boshqarmalaridagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘linmalari shtat birliklari, xodimlarning nomenklaturasi, lavozim yo‘riqnomasi va ishga qabul qilishda belgilangan malaka tavsiflari qayta ko‘rib chiqildi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 1-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi markaziy apparati tuzilmasini yangi tahrirda tasdiqlash haqida” 145-son buyrug‘i bilan 7 ta shtat birligidan iborat Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan shtat birliklari ochiq tanlovlar asosida munosib kadrlar bilan to‘ldirildi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 15-maydagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlarining namunaviy tuzilmasini tasdiqlash haqida” 155-son buyrug‘i tasdiqlandi.

Unga ko‘ra, hududiy boshqarmalarning Korrupsiyaga qarshi kurashish va

ichki nazorat shu’basi tuzilmasi qayta ko‘rib chiqilib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent va Farg‘ona viloyatlariga 2 tadan shtat, Jizzax, Navoiy, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari hamda Toshkent shahriga 1 tadan shtat birligi ajratilgan.

Vazirlik tasarrufidagi tizim tashkilotlarida jami 32 shtat birligida korrupsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida 2 shtat birligi, "Ta’minot va logistika xizmati" DUKda 1 shtat birligi, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligida 1 shtat birligi, MTT direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida 1 shtat birligi, O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida 3 shtat birligi, Nukus davlat pedagogika institutida 2 shtat birligi, Andijon davlat pedagogika institutida 2 shtat birligi, Buxoro davlat pedagogika institutida 2 shtat birligi, Jizzax davlat pedagogika universitetida 2 shtat birligi, Shahrisabz davlat pedagogika instituti 2 shtat birligi, Namangan davlat pedagogika institutida 2 shtat birligi, Guliston davlat pedagogika institutida 2 shtat birligi, Termiz davlat pedagogika institutida 2 shtat birligi, Chirchiq davlat pedagogika universitetida 2 shtat birligi, Urganch davlat pedagogika institutida 2 shtat birligi, Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti 2 shtat birligi, Samarqand davlat pedagogika institutida 2 shtat birligi ajratilgan.

Biroq, ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan va shtat birliklari mavjud bo‘lmagan tashkilotlarda vazifalar boshqa tarkibiy bo‘linmalar xodimlari zimmasiga qo‘shimcha vazifa sifatida yuklatilgan bo‘lsa-da, ichki nazorat tuzilmalarini mavjud shtat birliklari doirasida tashkil etilganligi kabi bir qator omillar korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko‘rish kabi funksional vazifalarini to‘liq bajarishiga to‘sqinlik qilmoqda, natijadorlik ko‘rsatkichlariga esa salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Eng asosiysi, Ichki nazorat tuzilmasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi PQ-3931-sonli qaroriga asosan 2 ta asosiy vazifani, birinchisi – maktabgacha va maktab ta’limi muassasalarida ichki nazoratni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar va boshqa qonunga xilof harakatlar sodir etilishining, shuningdek, Vazirlik tizimi xodimlari tomonidan kasbga oid odob-axloq qoidalari buzilishining oldini olish va profilaktika qilish, ikkinchisi – davlat organlari va boshqa tashkilotlarning maktabgacha va maktab ta’limi muassasalari faoliyatiga asossiz aralashuviga, pedagog kadrlarning sha’ni va qadr-qimmati kamsitilishiga, ularning mehnatga majburlanishiga, ta’lim-tarbiya jarayoniga to‘sqinlik qilishning har qanday shakllariga, o‘qituvchi va o‘quvchilarning huquqlari buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko‘rish vazifa va funksiyalarini amalga oshiradi.

Shuningdek, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar va boshqa qonunga xilof harakatlar sodir etilishining, shuningdek,

Vazirlik tizimi xodimlari tomonidan kasbga oid odob-axloq qoidalari buzilishining oldini olish va profilaktika qilish vazifalaridan tashqari, 17 127 ta maktabgacha va maktab ta’limi muassasalari faoliyatiga asossiz aralashuviga, 977 388 nafar pedagog kadrlarning sha’ni va qadr-qimmati kamsitilishiga, ularning mehnatga majburlanishiga, ta’lim-tarbiya jarayoniga to‘sqinlik qilishning har qanday shakllariga, o‘qituvchi va 6,5 mln o‘quvchilarning huquqlari buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko‘rib kelmoqda.

Bu esa korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi xodimlari shtat birligiga nisbatan ish hajmi ko‘pligini, faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda shtat birliklari sonini ko‘proq belgilash maqsadga muvofiqligini ko‘rsatmoqda.

Xorijiy tajribada esa korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha profilaktika funksiyasini davlat organlari va tashkilotlari bajaradi (Gruziya, Ozarbayjon, Rossiya, Sloveniya, Chernogoriya, Serbiya, Fransiya, Niderlandiya, Italiya, Litva, Turkiya, Estoniya va Avstriya va boshqalar) va bu eng keng tarqalgan model hisoblanadi hamda vazirliklar va davlat idoralaridagi odob-axloq komissiyalari ushbu organ ichidagi korrupsiyaga qarshi va axloqiy qoidalarni targ‘ib qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi
Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy
nazorat boshqarmasi